

O'YIN NOMLARINING LINGVISTIK TAHLIL MUNOSABATI**Xomidova Nigora O'rinnovna**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Ilmiy maqolada milliy onomasiologiya ismlarning kelib chiqishi va ma'nosini o'rganuvchi, nomlarni tahlil qiluvchi va tasniflovchi, ularning rollarining etimologiyasi va tarixini tasniflaydigan, shuningdek, turli tillarda nomlarning shakllanish va qo'llanish qoidalarini o'rganuvchi fan ekanligi ochib berilgan. Ma'lumki, narsa va hodisalarining o'zaro ta'sirida, shuningdek, odamlarning o'zaro ta'sirida munosabat va tafakkur olami yanada mukammallahashadi.

Kalit so'zlar: milliy o'yin, nomlanish, munosabat, lingvistika, modellar, tasnif, hosisa

O'zbek xalq o'yinlari ona yurt tarixining ijodiy kuchini, moddiy va ma'naviy boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan. Diqqat bilan kuzatsak, ularda atrofdagi voqelikni tezroq bilish va ularni har tomonlama mukammal o'zlashtirishning tarixiy tajribalari ma'lum darajada aks etadi. Mazkur o'yinlar o'z tabiatiga ko'ra amaliydir. Biroq ularning ko'pchiligidagi e'tibor qilmaydigan nazariy tomonlari ham mavjud. Bu - ularning bir biridan farqlaydigan nomlanishi, amal qilish me'yori, vaqt o'tgan sari o'yinlarning eskirganligi tufayli ularning mazmunini yangilanib, ba'zi bir nomlarini qayta nomlashlari hamdir. Ularda xalq badiiy madaniyatni tizimining o'ziga xos bir butunligi, ularning milliy va individual xususiyatlari yaqqol ko'ringani singari ularni nomlash, qayta nomlash singari badiiy madaniyatning bir shakli bo'lgan yashirin nazariy jihatlari ham mukammallahib borgan. Ularning nomlari ham o'zbek tili leksikasini boyituvchi manbalardan biri sanaladi, faqat ular bugungi kungacha ham leksik, ham onomastik birlikkaldan biri sifatida maxsus ilmiy tadqiqot nuqtayi nazaridan ilmiy nazariy va ilmiy amaliy asoslarda o'rganilmagan.

Ushbu o'yinlarning milliy fe'l-atvori zamirida turkiy, shu jumladan o'zbek xalqining madaniy boyligi majmui, bu sohadagi benihoya katta, qiziqarli va bahsli merosi yotadi. O'zbek xalq o'yinlarining shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiyotida folklor, ayniqsa, uning doston va tarixiy rivoyatlar kabi janrlari muhim manbalardan biri sifatida xizmat qilishi tabiiydir. Masalan, "kurash" o'yinini mamlakatimiz hududlarida turli ko'rinishlarini yaxshi bilamiz: bel ushlashhib kurashish, turli usul bilan kurashish, o'ynab-o'ynab kurashish. Ammo milliy madaniyatimiz va ma'rifatimizning yorqin ramzi hisoblanadigan "Alpomish" dostonida qirq kechayu qirq kunduz Ko'kaldosh bilan olishayotgan Alpomishga kurashning bir usuli sifatida raqibni osmonga qarab otishga Barchinoyning da'vat etishi bu – kurash qoidalarini buzish emas, balki rivojlantirish va mukammallashtirish hisoblanadi. Natijada, bu kurash o'yini oddiy kurash emas, balki "surxondayocha kurash" nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lmoqda. Shu o'rinda bu dostonning mukammal holatga kelganiga o'n asr, ya'ni ming yil bo'lganligini e'tiborga olsak, o'yinlarimizning shakllanishi, rivojiyu taraqqiyoti "Alpomish" dostonida aytilganidek ming-ming yillardan oshib ketadi.

Xalqning ko'p o'yinlari o'z mavzularining individualligi bilan, mazmunlarining esa umumiyligi bilan qabila-urug'larning an'ana va urf-odatlarini, qadimiy udumlarini, mehnat faoliyati, ma'rifatiyu madaniyatini yoritishga ma'lum darajada imkoniyatni yuzaga keltiradi.

Qadimiy tarixga ega bo'lgan xalqimizning unutilayotgan ilohiy iltijolari, sermazmun hamda serma'no baytlari va hazil aralash sanoqlari bugungi bolalarning xalq o'yinlarida ham davom etib keladi. Shuning uchun ham guruh bo'lib o'ynaladigan o'zbek

xalq o‘yinlari va hatto, ayrim sport o‘yinlari qadimiy qabilalarining o‘yinlariga, ularning nomlanishiga va o‘ynash qoidalariga borib taqaladi. Chunki har bir narsada me’yor bo‘lgani singari o‘yinlarda ham ma’lum bir o‘ynash qoidalari o‘yinlar yaratilgan vaqtdayoq amalda bo‘lganligi tabiiy hol.

Ilk ko‘rinishdagi o‘zbek xalq o‘yinlari qadim zamonlardan bizning eramizgacha bo‘lgan davrlarda vatanparvar, jangovar, kelajakka ishonchi bor bo‘lgan dono va tug‘ma pedagoglar tomonidan shakllantirib borilgan. Buning uchun tarixiy yozma manbalar matnlariga murojaat qilish foydadan holi emas. Tarixiy afsonalardan “To‘maris” va “Shiroq” afsonalarida ma’lum bir o‘yinlarning elementlari to‘g‘risida ham to‘xtalingdan. Tarixiy afsonalar va tarixiy yozma manbalarda sak, shak va massaget qabilalarida o‘yinli musobaqalar juda keng tarqalgan va ular xalqning sevimli odati bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor. Ularda qayd etilishicha, sak//shak, massaget qabilalarining yigitlari mana shunday o‘yin musobaqalarda o‘zлari yenggan qizlarga uyylanish huquqini olishgan. Shuningdek, buni arxeologik qazilmalarni olib borgan olimlar tomonidan yig‘ilib, o‘rganilgan tarixiy arxeologik hamda etnografik materiallari ham tasdiqlaydi.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, turkiy va o‘zbek milliy xalq o‘yinlari qadimgi davrlarda maydon tomoshalari, bayramlarni o‘tkazish hamda jang qilish usullari sifatida bir necha yuz yillar muqaddam vujudga kelgan. Buni arxeologik qazilmalar va nafaqat qadimgi rim yozuvchisi Elianning etnografik materiallari, shu bilan birga mamlakatimizning turli hududlaridan topilgan tarixiy yodgorlik va manbalar, turkiy qabr toshlari, “Devonu lug‘at-it turk” kabi bir qancha ilmiy va tarixiy asarlarning ham etnografik, ham dialektologik mazmun-mohiyatini asoslaydigan dialektal mazmunli misollari tasdiqlaydi.

Ularning paydo bo‘lish tarixi bizning mamlakatimiz hududida xalq milliy o‘yinlari, xususan, sport, teatr, raqs va sirk san’atining rivojlanishi bilan bog‘liqidir.

Ming-ming yillar oldin yaratilgan xalq o‘yinlarining mazmuni g‘oyat boy, rang-barang va juda xilma-xil bo‘lib, muayyan tarixiy fe'l-atvorga ega, ya’ni vatanparvarlikni kuchaytirish, el-yurt ozodligi, tenglik va barqarorlik bo‘lishining saqlanib qolishi uchun ular yaratilgandir.

Ularning mazmunida xalq tantanalari va tomoshalarining eng yaxshi an’analari hamda ko‘rinishlarini o‘zida jamlangan. Shuningdek, betakror o‘ziga xosligi va xususiyatlari bilan xalq o‘yinlari milliy ma’rifat va madaniyatimizni boyitdi, o‘z avlodlarining xalq an’ana, qadriyat va urf-odatlarini mukammal darajada mujassamlashtirilgan.

Misol uchun milliy xalq o‘yinlari orasida, ayniqsa, qadimiy hamda hayajonli dorboz va simbiozlik san’atlari alohida ajralib turgan. Ilgari ham dor o‘yinlari hamda unda o‘ynovchilarining mahorati juda mashhur bo‘lganki, hatto, ularni hukmdor va mashhur sarkardalar, shuningdek, chet ellik mehmonlar ham ko‘rishgan. Turkiylarning, xususan, o‘zbeklarning ommaviy va mahalliy bayramlari, mavsumiy bozorlari dorbozlarsiz o‘tmaganligi tabiiy.

Xalq vakillarining bu o‘yinlarga qiziqishlari ko‘pligi uchun katta shaharlarning Registonlarida, bozor maydonlarida, Chorsularda dorlar qurilgan. Ertalabdan yangragan karnay-surnay va nog‘oralarning uzliksiz sadolari tomoshalarning boshlanishidan darak berib turgan. Bularni eshitib, odamlar to‘plangach, dorbozlik bilan bog‘liq dor o‘yinlari boshlanib ketgan. Albatta, to‘plangan tomoshabinlar baland qilib tortilgan arxon ustida ming bir usulu ming turli noziklik bilan o‘ynayotgan dorboz(lar)ning dadil harakatlarini hayajon bilan kuzatishgan.

Darbozlarning qaltis, lekin ijobjiy harakatlaridan lol bo'lishgan bo'lishsa, shuningdek, qaltisu salbiy harakatlaridan esa lolu hayron bo'lib, xafa ham bo'lishgan.

Dor va darboz o'yinlari bilan bir vaqtida O'rta Osiyoda, xususan, bizning mamlakatimiz hududimizda yog'och oyoq o'yini ommaviy ravishda tarqalib ketgan. Yog'och oyoqlilar yugurib, sakrab, raqsga tushib, karnay, surnay kabi milliy cholg'u asbloblarda kuylar ijro etib, ajoyib tomoshalar ko'rsatishgani singari yoshlarga ham ijobjiy, ba'zan esa ham salbiy ta'sirlar ko'rsatishganligi tarixiy manbalarda, tarixiy doston va romanlarda tasvirlangan.

Mana shunday o'yinlar sifatida "chavgon o'yini", "palaxmondan tosh otish" (charm va matodan o'rtacha kenglikda tayyorlangan tosh otish vositasi palaxmon deyilgan. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Farhod Armanistonga bostirib kirgan dushmanlarga tog'da turib, palaxmon toshini otish bilan qaqshatqich zarba bergen. 1941-yilda esa general Panifilov diviziysi o'zbek yigitlaridan tashkil toptirilgan bo'lib, ular "tosh otish", "toshni palaxmondan otish" o'yinlariga usta bo'lishgani uchun Moskvani egallashga kelgan dushman tanklarining saflariga portlovchi granatalarini aniq otishib, dushmanlarni taqqa to'xtatishib, orqaga chekintirishgani hali hanuz turli tarixiy manbalarda hamda tillarda dostondir), "ot ustida koptok o'yini", "kurash", "qo'l kuchini sinash", "ot ustida o'ynash", "ot ustidan sakrash", "merganlik" haqida «Boburnoma» da anchagina ma'lumotlar bor. Asarda tilga olingan o'yinlar jangchilarning jangovarligini kuchaytirganki, shoh va shoir Bobur Hindistonning Bonipart // Panipart degan joyida hind podshohining jangovar fillar bilan ta'minlangan yuz ming kishilik qo'shinga qarshi o'n ikki ming jangchi bilan qarshi jangga chiqib, g'olib bo'ladi.

Qadimdan XX asrning boshlarigacha Xorazmda yosh o'spirinlarni chiniqtirish va jangovar mahoratlarini oshirish uchun «Tayoq o'yini» ni keng tarqalishiga hokimiyat darajasida yo'l ochilganligi xalq o'yinlariga tabiiy ehtiyoj borligini ham ko'rsatadi.

O'z kelajagi uchun puxta va mustahkam zamin tayyorlash maqsadida xalqimiz vakillari yoshlar orasida hayvonlar va qushlar mavzusidagi juda qiziqarli "Kaptar o'yini", "Chakalak", "Yumronqoziq", "Ot o'yini" kabi o'yinlar bir qancha ommaviy ko'rinishdagi turli harakatlarga to'la raqsli o'yinlarning keng rasm bo'lishini ta'minlashgan. Bu bilan xalq vakillari farzandlariga hayvon kabi sergak va kuchli, qushlar singari beg'ubor, tegishqoq hamda mehnatkash bo'lishlari lozimligi g'oyasini singdirib borishgan.

Shuningdek, o'zbeklarning qabila va urug'lari orasida to'y-tomoshani anglatuvchi "Karnaymi, surnay", xalqning ijtimoiy-sotsial turmushining turli ko'rinishlarini ifodalovchi "Nina, ip va tuguncha", "Tapir-tupur qayrag'och", "Qovoq ekish", o'z eliyu yurtini himoya qilib, jangga kirishning hayotiy tasvirini ko'rsatuvchi "Xo'rozlar jangi", "Xo'roz va tovuq", "Qoch bolam, qush keldi", o'zaro tenglik, beg'araz hamkorlik o'z mazmun-mohiyatida bildiruvchi "Oq terakmi-ko'k terak" kabi o'yinlari ham mashhur bo'lgan.

Milliy xalq o'yinlari juda qadim zamonlarda vujudga kelgan bo'lsa-da, rivojlanishining har bir tarixiy bosqichida mazmunan o'zgarib, turli ijtimoiy vazifalarni bajargan.

Qadriyat, an'analar, fanlar, shu jumladan, xalq milliy o'yinlari, millatimiz hayoti bilan bog'liq bo'lib, avloddan avlodga meros bo'lib o'tib kelgan. Avlodlar egallagan bilim va tajribalar amaliy hayotda sinalgan, keyingi avlodlar tomonidan mustahkamlangan va takomillashtirilgan. Ularning mazmunini har bir avlod, jamiyat rivojlanishining bosqichlari yangilab borgan. Bolalar jamiyat rivojlanishining o'sha bosqichida kattalar o'ynashgan xalq milliy o'yinlarini

ularning nazoratida bиргаликда о‘ynashgan. Ko‘pgina milliy o‘yinlar esa ota va bobolardan bola va nabiralarga meros sifatida o‘tgan.

ADABIYOTLAR:

1. Urinovna H. N. SCIENTIFIC ONOMASIOLOGICAL ANALYSIS OF THE NAMES OF NATIONAL GAMES //Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 1-3.
2. Urinovna H. N. The importance of learning the names of folk games //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 4. – С. 145-149.
3. Шомуродова З. Р. Основное содержание перевода научной и технической литературы //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 11 (95). – С. 70-74.
4. Rajabovna S. Z. Peculiarities of Translating Technical Texts from Uzbek into English //European Journal of Research Development and Sustainability. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 15-17.
5. Rajabovna S. Z. Texnik Yo’riqnomalarning Grammatik Uslubi Va Ularning Tarjimadagi Ahamiyati //Journal of Innovation in Education and Social Research.